3) gorizont yuza uchun quyoshni soatlik botish burchagi; 3) janubga yo'naltirilgan qiya yuza uchun quyoshni soatlik botish burchagi; 4) janubga yunaltirilgan gorizont tekislikdan qiya tekislikga kaytishni xisoblash koeffitsienti; 5) gorizont yuzaga tushuvchi quyosh energiyasini qiymati; 6) er yuzasini albedosi, to'g'ridan-to'g'ri tushadigan quyosh nurlanishini gorizonatal yuzadan qiya yuzaga kayta hisoblash o'rtacha oylik koeffitsienti 7) quyoshni karralab turish soatlari soni 1.8-jadvalda keltirilgan;

4) fotoelektrik tizimga bo'ladigan xarajatlarni kamaytirish uchun berilgan xolatni hisoblashda pik quyosh-soatlarini o'rtacha yillik miqdori bo'yicha bajariladi. Buni umumiy energetic tizimning dubler tarzida foydalanish hisobiga amalga oshirish mumkin. Yilning iliq vaqtida ishlab chiqariladigan elektr energiya umumiy tarmoqqa uzatilishi mumkin, sovuq payti mos ravishda tarmoqdan olinishi mumkin.

1.8-jadval

$\beta=45^{\circ}$ qiya burchagi uchun pik quyosh-soatlari qiymatini hisoblash.

Oylar	φ	β	\sum_{3}	\sum_{3H}	Rp	To'g'ri nurlanish ES, kVt \times soat/m ²	Yoyilgan nurlanish ED, kVt \times soat/m ²	Yig'indi nurlanish E, kVt \times soat/m ²	P	R	i
yanvar	45	45	67,55	90	2,98	15,13	24,44	39,57	0,7	1,78	2,37
fevral	45	45	76,65	90	2,13	20,95	31,43	52,38	0,7	1,48	2,58
mart	45	45	87,60	90	1,51	47,72	51,22	98,94	0,7	1,29	4,26
aprel	45	45	99,53	90	1,11	77,99	59,36	137,35	0,2	1,01	4,61
may	45	45	109,90	90	0,89	96,61	73,33	169,94	0,2	0,88	4,99
iyun	45	45	115,25	90	0,80	123,38	69,84	193,22	0,2	0,84	5,38
iyul	45	45	112,82	90	0,84	145,5	66,35	211,85	0,2	0,86	6,09
avgust	45	45	103,89	90	1,01	123,3	57,04	180,42	0,2	0,98	5,87

sentyabr	45	45	92,20	90	1,33	87,3	48,89	136,19	0,2	1,18	5,34
oktyabr	45	45	80,26	90	1,89	59,3	38,41	97,77	0,7	1,61	5,26
noyabr	45	45	69,98	90	2,71	22,12	27,94	50,06	0,7	1,79	2,99
dekabr	45	45	64,88	90	3,33	11,64	20,95	32,59	0,7	1,85	2,00
										O'rtacha	4,31
										:	

- 5) KV 175 quyosh batareyasini tanlaymiz, ya'ni $P_{o'irt}^{QB} = 175 \text{ Vt}$, $U_{mak}^{QB} = 36 \text{ V}$, maksimal quvvat nuqtasidagi tok $I_{mak} = 4,93 \text{ Amper}$ Quyosh batareyasini yuzasi $1,28 \text{ m}^2$;
- 6) Invertorni kuchlanish bilan ta'minlash uchun pasaytiruvchi kuchlanish stabilizatorini o'rnatamiz va quyosh batareyasi chiqishidagi minimal kuchlanish $U_{min}^{QB} = 24 \text{ V}$. Bu quyosh radiatsiyasini past intensivligida ham energotizimning ishlash barqarorligini ta'minlaydi. Keyingi hisoblashlar kuchlanish stabilizatori o'rnatilganida yuqoridagilardan farq qiladi;
- 7) Akkumulyator batareyasini zaryad-razryadiga ketadigan yukotishlarni xisobga olamiz;

$$q = q_{24 \text{ soat}} \cdot \zeta = 1082,86 \cdot 1,2 = 1299,43 \text{ Amper} \times \text{soat} \quad (1.12)$$

- 8) Quyosh batareyalari ishlab chiqarishi kerak bo'lgan tokning qiymati;

$$I^{QB} = \frac{q}{i} = \frac{1299,43}{4,31} = 301,49 \text{ A} \quad (1.13)$$

- 9) Quyosh batareyalarini umumiy talab qilingan soni;

$$N^{QB} = \frac{I^{QB} \cdot U_{inver}}{P_{o'irta}^{QB}} = \frac{301,49 \cdot 24}{175} = 41 \quad (1.14)$$

- 10) Ketma-ket ulangan modullar soni;

$$N_{ketma - ket}^{QB} = \frac{U_{inver}}{U_{min}^{QB}} = \frac{24}{24} = 1 \quad (1.15)$$

- 2) Quyosh batareyalarining yuzasi.

$$S^{QB} = N^{QB} \cdot S_1^{QB} = 41 \cdot 1,28 = 52,48 \text{ m}^2. \quad (1.16)$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Topvoldiyev Nodirbek Abdulhamid o'g'li, Utkirbek Akramjonovich Axmadaliyev, & Karimberdiyev Khikmatillo Qahramonjon ugli. (2024). DEVELOPMENT AND APPLICATION OF 3rd GENERATION SOLAR ELEMENTS. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 219–225.

2. Abdulhamid ogli, T. N., & Azamjon ogli, S. H. (2024). IMPLEMENTATION OF SMALL HYDROPOWER PLANTS IN AGRICULTURE. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 182-186.
3. Abdulhamid ogli, T. N., & Yuldashboyevich, X. J. (2024). ENERGY-EFFICIENT HIGH-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 93-99.
4. Abdulhamid ogli, T. N., & Yuldashboyevich, X. J. (2024). SOLAR PANEL INSTALLATION REQUIREMENTS AND INSTALLATION PROCESS. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 40-47.
5. Abdulhamid o'g'li, T. N., & Sharipov, M. Z. (2023). ENERGY DEVELOPMENT PROCESSES IN UZBEKISTAN. Science Promotion, 1(1), 177-179.
6. Topvoldiyev, N. (2023). Storage of Electricity Produced by Photovoltaic Systems.
7. Abdulhamid o'g'li, T. N. (2022). Stirling Engine and Principle of Operation. Global Scientific Review, 4, 9-13.
8. Alijanov, D. D. (2023). Storage of Electricity Produced by Photovoltaic Systems.
9. Abdulhamid o'g'li, T. N., & Muhtorovich, K. M. (2022). Stirling's Engine. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 95-97.
10. Abdulhamid o'g'li, T. N. Exploring the Fundamentals of Battery Configurations: Series and Parallel Setup Demystified.
11. Abdulhamid o'g'li, T. N. Davronov Akmaljon Abdug 'ani o'g'li. "Stirling Engine and Principle of Operation". Global Scientific Review, vol. 4, June 2022.
12. Abdulhamid o'g'li, T. N. Davronov Akmaljon Abdug 'ani o'g'li. (2022). Stirling Engine and Principle of Operation. Global Scientific Review, 4, 9-13.
13. Muhtorovich, K. M., & Abdulhamid o'g'li, T. N. DETERMINING THE TIME DEPENDENCE OF THE CURRENT POWER AND STRENGTH OF SOLAR PANELS BASED ON THE EDIBON SCADA DEVICE.
14. Abdulhamid o'g'li, T. N. Raxmonov Azizbek Botirjon o'g'li, & Musiddinov Otabek Ulug'bek o'g'li. (2022). STIRLING ENERGY GENERATOR. E Conference Zone, 13-16.



FOTOELEKTRIK STANSIYALARNING TIZIMLARINI HISOBLASH TURLARI

Topvoldiyev Nodirbek Abdulhamid o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti

Muqobil energiya manbalari kafedrasida assistenti

Abdullajonov Muhammadqodir Botirjon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti

Muqobil energiya manbalari

yo'nalishi 4-kurs talabasi

ARTICLE INFO

Received: 11th March 2024

Accepted: 11th March 2024

Online: 11th March 2024

KALIT SO'ZLAR

Invertor, kontroller, akkumulyator, batareyalari, o'zgaruvchan tok, o'zgarmas tok

ANNOTATSIYA

Quyosh batareyalari va Fotoelektrik stansiyalar quvvatini hisoblash uchun va fotoelektrik qurilmalar tayyorlash uchun quyida keltirilgan punktlarni hisobga olish zarur: Fotoelektrik qurilma quvvatini hisoblash uchun avvaliga uni ishlatilishi ko'zda tutilgan muhit bilan tanishish va shu muhit xususiyatlarini (o'rtacha harorat, yorug'lik nurlarining o'rtacha quvvati, yorug'lik tushish muddati, yil davomidagi yorug' kunlar va hokazo) o'rganish zarur; Elektr energiyasi iste'molchilarining xarakterini (o'zgaruvchan tok iste'molchilari xususiyatlari, o'zgaruvchan tok iste'molchilari xususiyatlari), iste'molchilarning elektr parametrlari (tok kuchi, uchlanishi, o'zgaruvchan tok chastotasi), kerakli umumiy elektr quvvatini hisoblash. Xar bir iste'molchiga bir kunda o'rtacha ishlatish vaqtini aniqlash;

Invertor quvvatini va energiya iste'molini aniqlash: O'zgaruvchan tokli yuklamalarning nominal quvvati va haftali ish soati ma'lumotlari 1.1 - jadvalga kiritish. Quvvatni har bir asbob ish soatlariga ko'paytirish va bir haftada jami o'zgaruvchan tokli energiya miqdorini W_{nep} -aniqlash uchun hosil bo'lgan qiymatlarni qo'shib chiqamiz. Ba'zi asboblarning quvvatlari qiymati 1.2 - jadvalda keltirilgan. Yoritishni hisoblash jarayoni yuqorida keltirilgan edi. Har bir xona uchun umumiy talab qilingan lampalar quvvatini ish soatlari soniga ko'paytirib, yig'indi natijalarini 1.1 - jadvalga kiritamiz.

1.1-jadval

O'zgaruvchan tokli yuklama

No	O'zgaruvchan tokli yuklama	Quvvat, Vt	×	Hafta ish soati	=	Vt×s/hafta
1			×		=	
2			×		=	

3			×		=	
Jami					=	

1.2-jadval

Iste'molchilarning quvvatlari

No	Iste'molchi	Quvvat, Vt
1	Mikro to'liqinli pech	850 – 1500
2	Choynak	1200 – 1500
3	Muzlatgich	230 – 550
4	Idish yuvish mashinasi	2000 – 2500
5	Kofe maydalagich	140 – 220
6	Toster	800 -1500
7	Blender	220 – 700
8	Oshxona kombayni	500 – 800
9	Kofe qaynatgich	150 – 3000 (turiga, xajmiga, isitish haroratigabog'liq)
10	Televizor	17 – 300 (modeli va diagonaliga bog'liq)
11	Kompyuter	150 – 300
12	Konditsioner (sovutgich)	800 – 2500 (ish rejimiga bog'liq)
13	Chang yutgich	700 – 2000
14	Fen	1200 – 1800
15	Kir yuvish mashinasi	700 – 2000
16	Dazmol	800 – 2400 (kam quvvatli, o'rtacha va maksimalquvvatliga bo'linadi)
17	Elektr plitasi	1200 – 4000
18	Printer	100 – 650
19	Nusxa ko'chirish kurilmasi	2000 – 5000
20	Faks	130
21	Nasos	250-500
22	Muzika sentr	100
23	DVD-pleer	35 – 60
24	Havo so'rgich	100 – 150
25	Ventilyator (shamollatgich)	10 – 60
26	Elektr quritgich	400 – 2000
27	Elektr odeyal (ko'rpa)	40 – 100
28	Britva (ustara)	10 – 15
29	Qizdirgich	1500 – 6000 (qizdiriladigan xona maydoniga bog'liq)
30	Drel (teshgich)	600– 1000

1) qancha o'zgaras tok energiyasi kerak bo'ladi shuni hisoblash zarur. Buning uchun, olingan qiymatni invertordagi yuqotishni hisobga oluvchi $k=1,2$ koeffitsientiga ko'paytiriladi;

$$W = W_{o'zgaruvchan} \cdot k \tag{1.1}$$

2) tanlangan inverter xarakteristikalari bo'yicha invertorga kiruvchi kuchlanishini U_{inv} Aksariyat hollarda 12, 24, 48 V va undan yuqor quvvatli kuchlanish tizimlar uchun o'rinli. Inverter shunday tanlanadiki, uni quvvati o'zgaruvchan tok quvvatini k ga ko'paytirilganidagi qiymatdan yuqoribo'lishi shart;

3) o'zgaruvchan tok yuklamasini qoplash uchun kerak bo'lgan haftalik elektr energiya quyidagi formula bilan aniklanadi;

$$q_{hafta}^{o'zgar} = \frac{W_{o'zgar}}{U_{invert}} \tag{1.2}$$

4) o'zgaras tok yuklamasini $W_{o'zgar}$ hisoblab, natijasini 3-jadvalga kiritish kerak;

1.3-jadval

O'zgaras tok yuklamasi.

No	O'zgaras tok yuklamasi	Quvvat, V_t	×	Xaftada ish soati	=	$V_t \times s/x$ afta
1			×		=	
2			×		=	
3			×		=	
Jami						

5) tizimda o'zgaras tok kuchalanishini aniqlash $U_{o'zgar}$ Ko'pincha bu 12 yoki 24V

6) o'zgaras tok yuklamasini qoplash uchun kerak bo'lgan haftalik quyidagiformula bilan aniqlanadi;

$$q_{hafta}^{o'zgar} = \frac{W_{o'zgar}}{U_{o'zgar}} \tag{1.3}$$

7) akkumulyator batareyasini talab qilingan yig'indi xajmi, ya'ni xaftada kerakbo'lgan elektr energiya;

$$q_{hafta} = q_{hafta}^{o'zgar} + q_{hafta}^{o'zgar} \tag{1.4}$$

8) sutkasiga iste'mol qilinadigan elektr energiya qiymati q_{24soat} 7 kunga bo'lib aniqlanadi;

$$q_{24soat} = \frac{q_{hafta}}{7} \tag{1.5}$$

Akkumulyator batareyasini kerakli hajmining qiymati va sonini

aniqlash quyidagicha:

1) 1.4-jadvaldan foydalanib va foydalanish rejimiga mo'ljallab, uzluksiz "Quyoshsiz kunlar" $N_{\text{Quyoshsiz kun}}$ -ni maksimal sonini aniqlash (ya'ni akkumulyator batareyasini zaryadlash va o'z navbatida bulutli yoki noqulay ob - havo vaqtida uni ishlashi uchun Quyosh energiyasi etarli bo'lmagan paytlarda). Fotoelektrik sistemani butun yil davomida dubler bilan foydalanilganda, shu jumladan umumiy energiya tarmog'ida ishlagan holatda ham, xarajatlarni kamaytirish uchun Quyoshsiz kunlar bo'lishi ehtimolini - 1 deb tanlash mumkin. Bu masala istalgan vaqtda zaxira manba'idan zaryadlash bilan bog'liqdir. Shuningdek, akkumulyator batareyalarini, zaryadlantirmasdan yuklamani mustaqil ta'minlashi mumkin bo'lgan tanlangan kunlari soni xam parametr qilib olinishi mumkin. Agar tizim faqat dam olish kunlarida borib turiladigan shaxardan tashqari uy uchun qo'llanilsa, batareyalarni katta xajmi kerak bo'ladi. Chunki ular hafta davomida energiya bilan zaryadlanishi va dam olish kunlari kutilmaganda barcha elektr jixozlarini ishga tushirilganda ularning to'liq energiyasi iste'molga berishim mumkin;

1.4-jadval

Ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'lgan, Quyoshsiz kunlar soni.

Joy kengligi	Fasl		
	Yoz oylari	Kuzgi va baxorgi oylar	Qish oylari
30	2-4	3-4	4-6
40	2-4	4-6	6-10
50	2-4	6-8	10-15
60	3-5	8-12	15-25
70	3-5	12-14	20-35

2) $N_{\text{Quyoshsiz kun}}$ quyoshsiz kunlar sonini hisobga oladigan akkumulyatorlarni yig'indi xajmi;

$$q_N = q_{24 \text{ soat}} \cdot N_{\text{oc}} \tag{1.6}$$

1) Akkumulyator batareyasini ruxsat etilgan razryadlash kattaligining chuqurligini berish. Bunda bir narsani hisobga olish kerak, razryad chuqurligi qancha katta bo'lsa, batareya shuncha tez ishdan chikadi. Razryad chuqurligini tavsiya qilingan qiymati 20 - 50 % (nominal hajm qiymatidan 20% - 50% foydalaniladi). O'z navbatida γ foydalanish koeffitsienti 0,2 dan 0,5 gacha. Hech qanaqa holatda ham batareya razryadi 80 % dan oshmasligi kerak:

a. razryad chuqurligini hisobga olgan holda akkumulyator batareyasini zaryadi;

$$q_\gamma = \frac{q_N}{\gamma} \tag{1.7}$$

b. akkumulyator batareyalari oʻrnatilgan xonadagi atrof-muhit haroratini hisobga oladigan α koeffitsientini 5-jadvaldan tanlanadi. Koʻpincha bu Qish vaqtidagi oʻrtacha harorat. Bu koeffitsient harorat pasayganida hajm kamayishini xisobga oladi;

1.5-jadval

Akkumulyator batareyasi uchun harorat koeffitsienti.

Harorat graduslarda		Koeffitsient
Selsiy	Farengeyt	
26,7C	80F	1,00
21,2C	70F	1,04
15,6C	60F	1,11
10,0C	50F	1,19
4,4C	40F	1,30
-1,1C	30F	1,40
-6,7C	20F	1,59

v. akkumulyator batareyalarini umumiy talab qilingan xajmi;

$$q_{umumiy} = q_{\gamma} \cdot \alpha \tag{1.8}$$

c. foydalaniladigan akkumulyator batareyasining turi tanlanadi. (geliviy yoki litiy ionli akkumulyatorlar yaxshiroq). Uni uchun q_{umumiy} nominal xajm va U_{nom} nominal kuchlanish yozib olinadi;

d. batareyalarni talab qilingan hajmini q_{umumiy} tanlangan akkumulyatorni nominal xajmiga boʻlib, olingan qiymatni yaqin butun songacha yaxlitlaymiz. Buparallel ulangan batareyalar soni boʻladi;

$$N_{paral}^{AKB} = \frac{q_{umumiy}}{q_{nom}} \tag{1.9}$$

e. sistemani oʻzgarimas toki nominal kuchlanishi U_{inv} akkumulyator batareyasini nominal kuchlanishiga boʻling (koʻpincha 2, 6 yoki 12 V). Olingan qiymatni yaqin butun songacha yaxlitlang. Natija ketma-ket ulangan batareyalar sonini beradi;

$$N_{ketma-ket}^{AKB} = \frac{U_{inv}}{U_{nom}} \tag{1.10}$$

f. akkumulyator batareyalarini talab qilingan soni quyidagicha hisoblanadi;

$$N^{AKB} = N_{paral}^{AKB} \cdot N_{ketma-ket}^{AKB} \tag{1.11}$$

g. quyosh batareyalarini zarur boʻlgan sonini aniqlash.

Berilgan joy uchun i pik Quyosh-soatlari miqdori aniqlanadi. Buning uchun Quyosh nurini maydonchaga quyosh batareyalarini qiyaligiga teng boʻlgan qiya burchagi ostida kelib tushadigan oylik oʻrtacha $kVt \times soat / oy$ miqdorini oy kunlariga boʻlish kerak. Pik soatlari deb, $1000 Vt / m^2$ quyosh nuri intensivligi

tushuniladi. Shunday qilib, sistema yozgi vaqtda foydalanilganida kichik qiymatga ega bo'lgan oy bo'yicha hisoblash mumkin. Agar elektr ta'minoti to'liq quyosh batareyalari yordamida amalga oshirilsa, unda eng sovuq oy bo'yicha xisoblanishi zarur. Bu xolatdagi kamchilik shundan iboratki, quyosh batareyalari ko'p miqdorda talab qilinadi, demak pik quyosh-soatlarini juda kichik qiymati natijasida o'ta katta xarajatlar paydo bo'lishidir. Quvvati katta sistemalar uchun quyosh batareyalarini o'rnatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Shuning uchun zaxira manba' bo'lgan paytda hisoblashlarni pika quyosh-soatlarini o'rtacha yillik qiymat bo'yicha olish tavsiya qilinadi. Bu fotoelektrik tizimlarga bo'lgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi. Yilning iliq paytida ishlab chiqariladigan elektr energiya umumiy tarmoqqa berilishi mumkin, sovuq paytida o'z navbatida tarmoqdan yoki zaxira ta'minot manбайдan olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Topvoldiyev Nodirbek Abdulhamid o'g'li, Utkirbek Akramjonovich Axmadaliyev, & Karimberdiyev Khikmatillo Qahramonjon ugli. (2024). DEVELOPMENT AND APPLICATION OF 3rd GENERATION SOLAR ELEMENTS. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 219-225.
2. Abdulhamid ogli, T. N., & Azamjon ogli, S. H. (2024). IMPLEMENTATION OF SMALL HYDROPOWER PLANTS IN AGRICULTURE. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 182-186.
3. Abdulhamid ogli, T. N., & Yuldashboyevich, X. J. (2024). ENERGY-EFFICIENT HIGH-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 93-99.
4. Abdulhamid ogli, T. N., & Yuldashboyevich, X. J. (2024). SOLAR PANEL INSTALLATION REQUIREMENTS AND INSTALLATION PROCESS. Лучшие интеллектуальные исследования, 14(2), 40-47.
5. Abdulhamid o'g'li, T. N., & Sharipov, M. Z. (2023). ENERGY DEVELOPMENT PROCESSES IN UZBEKISTAN. Science Promotion, 1(1), 177-179.
6. Topvoldiyev, N. (2023). Storage of Electricity Produced by Photovoltaic Systems.
7. Abdulhamid o'g'li, T. N. (2022). Stirling Engine and Principle of Operation. Global Scientific Review, 4, 9-13.
8. Alijanov, D. D. (2023). Storage of Electricity Produced by Photovoltaic Systems.
9. Abdulhamid o'g'li, T. N., & Muhtorovich, K. M. (2022). Stirling's Engine. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 95-97.
10. Abdulhamid o'g'li, T. N. Exploring the Fundamentals of Battery Configurations: Series and Parallel Setup Demystified.
11. Abdulhamid o'g'li, T. N. Davronov Akmaljon Abdug 'ani o'g'li. "Stirling Engine and Principle of Operation". Global Scientific Review, vol. 4, June 2022.
12. Abdulhamid o'g'li, T. N. Davronov Akmaljon Abdug 'ani o'g'li. (2022). Stirling Engine and Principle of Operation. Global Scientific Review, 4, 9-13.
13. Muhtorovich, K. M., & Abdulhamid o'g'li, T. N. DETERMINING THE TIME DEPENDENCE OF THE CURRENT POWER AND STRENGTH OF SOLAR PANELS BASED ON THE EDIBON SCADA DEVICE.
14. Abdulhamid o'g'li, T. N. Raxmonov Azizbek Botirjon o'g'li, & Musiddinov Otabek Ulug'bek o'g'li. (2022). STIRLING ENERGY GENERATOR. E Conference Zone, 13-16.



ADABIY NUTQ. NUTQ USLUBLARI XUSUSIDA

Xolmatova Muhayyo Abdug'opporovna

Andijon mashinasozlik instituti akademik litseyi
ona tili va adabiot fani o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2024
Accepted: 19th March 2024
Online: 20th March 2024

KALIT SO'ZLAR

til, adabiy nutq, yozma nutq, og'zaki nutq, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, adabiy talaffuz, nutq, muloqot

ANNOTATSIYA

Adabiy til va uning normalari avvalo o'rta va oliy maktab ta'limi orqali o'zlashtiriladi. Demak, adabiy tilni o'rganish tinimsiz shug'ullanish orqali egallanadigan nutqiy hodisadir. Adabiy nutq va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati - bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilimizda ta'lim-tarbiya ishlari yuritilishi bilan birgalikda ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi. Radio va televideniya eshittirishlarida ushbu til normalariga amal qilinadi. Til yozma va og'zaki nutq davomida o'z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Adabiy tilning yozma shakli faoliyatida ilmiy uslub, rasmiy uslub, ommabop (publitsistik) uslub qoliplariga xoslanish xususiyatlari ham mavjud. Yozma nutqda, ya'ni nutqning yozma shaklida biz o'zbek tilining imlo qoidalariga, nutqning og'izaki shaklida esa, adabiy talaffuz normalariga amal qilamiz. Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'izaki shakli ko'proq adabiy so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi, uning faoliyatida imo-ishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham ishtirik etadi. O'zbek adabiy tili, uning madaniy vositalari umummajburiy norma sifatida o'qitiladi va o'rgatiladi. Adabiy til, uning yozma va og'zaki shakli normalari bu tilda so'zlovchilarning ko'p sonli shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat bo'lgan umumnorma sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilida minglab, millionlab kishilar muloqot qiladilar. Bu kishilarning har biri alohida shaxs, alohida nutq egalaridir. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol - yagona o'zbek adabiy tilidan foydalanishadi.

Mana shu ko'psonli shaxslar, bir tomondan, yagona bitta adabiy til - o'zbek adabiy tilidan foydalanishiga ko'ra, ikkinchidan esa, bitta til atrofida birlashayotganliklariga ko'ra muayyan umumiylikka, uyushganlikka ega. Mana shu umumiylik tilshunoslikda til uyushmasi (jamoasi) deb yuritiladi. Muayyan til uyushmasini mushtarak qilib turadigan asosiy omil aloqa quroli bo'lgan tilning yagonaligi va bu til adabiy normalarining umummajburiyligidir. Adabiy til va uning normalari avvalo o'rta va oliy maktab ta'limi orqali o'zlashtiriladi. Adabiy tilni egallashda mustaqil shug'ullanish, ayniqsa badiiy adabiyotlarni, ro'znoma va oynomalarni o'qish, radio va televideniyaning tinglash muhim rol o'ynaydi. Demak, adabiy tilni o'rganish tinimsiz shug'ullanish orqali

egallanadigan nutqiy hodisadir. Adabiy nutq va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati - bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir.

Adabiy nutq malakasiga - adabiy til normalarini egallash orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida nutq malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi singari tushunchalar mavjud. Aslida bu tushunchalarning barchasi adabiy til madaniyatini egallash bilan bog'liqdir. Ko'rinadiki, adabiy til normalarini qayta ishlash, ongli boshqarish qanchalik zarur bo'lsa, bu normalarni amalda sinab ko'rish va baholash ham shunchalik zarurdir. Mana shunday sababga ko'ra adabiy til normalarini belgilash, uni qayta ishlash, silliqlash o'z-o'zidan hal bo'ladigan va tezda tugaydigan jarayon emas, balki muttasil davom etadigan ishdir. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, nutq madaniyatiga rioya qilib gapirish - nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu ko'nikma o'zbek adabiy tili, uning og'zaki va yozma shakli normalarini o'rganish va egallash bilangina amalga oshadi. Nutq madaniyati ko'nikmasi - adabiy til va uning normalarini nafaol tarzda emas, balki faol tarzda egallab iste'molda undan to'laqonli foydalanishdir. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, tilni faol egallash - tilni ongli ravishda o'zlashtirish va undan og'zaki hamda yozma nutq amaliyotida unumli va xatosiz ishlata olish demakdir. Ba'zi kishilarning o'zbek tilida ravon va hech qanday kamchiliklarsiz yoza olmasligi yoki adabiy tilda erkin so'zlay olmasligi ularning o'zbek adabiy tilini qoniqarli darajada egallamaganligidan va iste'molda odatda o'z ona tilisidan kam foydalanishidan darak beradi.

Vaholanki, bugungi kunda bu borada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan tashkilot va korxonalar hamda shunga o'xshash joylarda ish qog'ozlari, hujjatlar o'zbek tilida olib borilmoqda. Shuning uchun ham qulaylik yaratish maqsadida nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til normalariga tayanib ish ko'radi va shu boisdan ularda mushtarak lug'aviy normalar, umumiy morfologik, sintaktik vositalar ham mavjud. Ammo ba'zi bir istisnalar ham ular: yozma nutqda amal qilinadigan imloviy, og'zaki nutqda amal qilinadigan talaffuz normalari, ohangiy (intonatsion) normalar yozma nutqda yo'q yoki yetakchi rol o'ynamaydi. Mana shunday farqli tomonlar yozma va og'zaki nutqning sintaktik qurilishida, so'z shakllarining to'liq va noto'liq qo'llanishlarida, imo-ishora bilan bog'liq (paralingivistik) vositalarning ishlatilish xususiyatlarida ham ko'rinadi. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og'zaki nutq madaniyati deyilgan alohida tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar o'zida yozma va og'zaki nutq shakllari oldiga qo'yiladigan nutq madaniyati talablarini ifodalaydi. Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televideniya uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi. Keltirilgan yozma nutq ko'rinishlarining o'zaro farq qiladigan normatik tomonlari bor. Shunga ko'ra, bu normalarga amal qilish bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati talablari ham mavjudligi shubhasiz.

Nutqning vazifaviy tiplari ba'zan ilmiy til, rasmiy til, badiiy til deb ham yuritiladi. Og'zaki nutq dastlab ikki tipga ajraladi: 1) oddiy so'zlashuv nutqi; 2) adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi o'zbek tilida tabiiy holda mavjud bo'lgan og'zaki nutq ko'rinishlaridan iborat. Masalan, turli o'zbek sheva va lahjalari tili, ya'ni dialektal nutq ko'rinishlari, shevachilik unsurlari ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuvning boshqa xil ko'rinishlari va b. Oddiy so'zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shu tufayli biz oddiy so'zlashuvdan adabiy tilda talqin qilayotgan ma'nodagi nutq madaniyatini talab qilmaymiz. Oddiy so'zlashuv oldiga qo'yiluvchi nutqiy talablar lahja va shevalarning tabiiy normalari bilan asosan lisoniy talablar bilan bog'liq bo'ladi.

Adabiy so'zlashuv nutqi adabiy tilning og'zaki nutq doirasidagi vazifalaridan yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda adabiy so'zlashuv nutqi - adabiy til madaniyatiga, ya'ni adabiy til normalariga amal qilgan holdamuloqot qilishdir. Ammo adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning bir qator sabablari bor:

- 1) og'zaki nutqda shevaning ta'siri kuchli bo'ladi;
- 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab ish tutish imkoni kam bo'ladi. Chunki og'zaki nutq yozma nutqdan tezkor (avtomatik) jarayon ekani bilan farqlanadi;
- 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. Chunonchi gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarib ketishi, o'rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo'lishi va b;
- 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi;
- 5) og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutq so'zlanayotgan vaziyatga, so'zlovchi nutqiy a'zolarining normal va sog'lomligiga bog'liq;
- 6) og'zaki nutq normalarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o'rgatish va o'rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi;
- 7) og'zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyatdir. Uning ko'pgina qirralari turli sharoitlarda namoyon bo'ladi va payqalmagan holda beiz yo'qolib ketadi;
- 8) og'zaki nutqning lisoniy xususiyatlari fanda yozma nutqqa nisbatan kam o'rganilgan;
- 9) og'zaki nutqni normalash ishlariga shu kunga qadar fanda nihoyatda kam e'tibor berildi;
- 10) kishi so'zlaganda o'z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi yetarlicha e'tibor beravermaydi.

Nutqiy turlarni ba'zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtai nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o'qituvchilar nutqi, o'quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, bola nutqi (bog'cha bolalari nutqi) kabi. Nutqning yuqorida keltirilgan xillari ham nutq madaniyatining asosiy talablariga bo'ysunadi. Chunki ularning til asoslari ham adabiy til normalaridir. Shu tufayli ham bu

nutqiy ko'rinishlardan talab qilinuvchi nutq madaniyati haqida ham alohida gapirish mumkin. Mana shu asosga ko'ra o'quvchilarning nutq madaniyati, o'qituvchilarning nutq madaniyati, sahna nutqi madaniyati, lektor nutqi madaniyati, radio nutqi madaniyati, televideniya nutqi madaniyati, umuman keng ma'noda og'zaki nutq madaniyati haqida ham so'z yuritish asoslidir. Ammo keltirilgan nutq xillarining asosiy lisoniy xususiyatlari, ular amal qiluvchi adabiy normalar va bu nutqlarda yo'l qo'yilayotgan ba'zi nuqsonlarning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilgan emas. Shuning bilan birgalikda tanqidiy ruhda yozilgan ba'zi maqolalarda adabiy talaffuzni buzish bilan aloqador ba'zi kamchiliklar ham tanqid qilinadi, ammo bu nuqsonlarni tuzatishning samarali ilmiy va amaliy yo'llari yetarli ravishda ko'rsatib berilmaydi. Umuman olganda hali-hanuz tilimizda ko'rib chiqilishi va bartaraf etilishi kerak bo'lgan masalalar mavjud shunday bo'lsada, barchasi asta-sekinlik bilan bartaraf etilib bormoqda va kishilar o'rtasida nuqt madaniyatini yaxshilash bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar:

1. **Hasanboy Jamolxonov.** Hozirgi o'zbek adabiy tili-T "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2013.-5 b
2. **R.Sayfullayeva, B Mengliyev, M.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova.** Hozirgi o'zbek adabiy tili T-"Fan va texnologiya"-2009.
3. **A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova.** O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. Toshkent-2016
4. **Shavkat Rahmatullayev.** Hozirgi adabiy o'zbek tili-T "Universitet" 2006
5. **S.Jalilov.** Hozirgi o'zbek adabiy tili Nukus-2011



УДК 14.00.00

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БЛОГОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ - ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ОБОГАЩЕНИЯ УЧЕБНОГО ОПЫТА СТУДЕНТОВ.

Шохида Тохтасинова

Учитель русского языка и литературы
Школа Профессии и Ремесла города Кува
Узбекистан, Фергана
mohinamakhmudova86@gmail.com

ИНФОРМАЦИЯ О СТАТЬЕ

Received: 18th March 2024
Accepted: 19th March 2024
Online: 20th March 2024

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

образование, инновационные подходы, блогеры, рефлексия, мягкие навыки.

АННОТАЦИЯ

Статья рассматривает роль блогов в современном образовательном процессе и их значимость как эффективного инструмента для обогащения учебного опыта студентов. Авторы анализируют практические аспекты применения блогов в учебной среде, включая их использование для рефлексии, обмена идеями и создания контента. Также рассматривается влияние блогов на активное участие студентов в учебном процессе и развитие их навыков коммуникации и аналитического мышления. В статье подчеркивается важность адекватной поддержки и мониторинга блогов со стороны преподавателей для максимального достижения образовательных целей.

ВВЕДЕНИЕ: В современном мире образования технологии играют ключевую роль в преобразовании учебного процесса. Одним из таких инновационных инструментов являются блоги, которые предоставляют студентам и преподавателям возможность взаимодействовать и обмениваться знаниями в онлайн-среде [1]. Использование блогов в образовательном процессе становится все более распространенным и показывает свою эффективность в обогащении учебного опыта студентов, а также в развитии их мягких навыков [2]. Этот метод позволяет студентам активно участвовать в учебном процессе, развивать критическое мышление, навыки коммуникации и сотрудничества. В данной статье мы рассмотрим роль блогов в современном образовательном контексте и обсудим практические аспекты их использования для достижения образовательных целей.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ: Для проведения исследования и написания данной статьи был использован аналитический и синтетический подход к изучению актуальных источников, касающихся использования блогов в образовательном процессе. Были проанализированы научные статьи, книги и

педагогические публикации, а также практические материалы и примеры успешного применения блогов в образовании.

Основной метод исследования включал сбор и анализ данных из различных источников, а также систематизацию их для последующего обобщения и выявления общих тенденций и выводов. В ходе исследования были выявлены различные методы использования блогов в образовательном процессе, включая их роль в стимулировании обсуждений, создании контента, а также организации рефлексии и обратной связи [3].

Использование блогов в образовательном процессе представляет собой эффективный инструмент для обогащения учебного опыта студентов и стимулирования активного обучения. Вот несколько аспектов использования блогов в образовании:

1. Платформа для обмена идеями: Блоги могут служить платформой для студентов и преподавателей для обмена мыслями, идеями и ресурсами, создавая виртуальное образовательное сообщество. Это может способствовать более глубокому обсуждению учебного материала и стимулировать коллективное мышление.

2. Отражение и рефлексия: Студенты могут использовать блоги для рефлексии над своим учебным опытом, записывая свои мысли, впечатления и осознания. Это позволяет им лучше понять учебный материал и свои собственные успехи и проблемы.

3. Создание контента: Студенты могут создавать собственный контент в виде статей, обзоров, исследований и т. д. на блоге, что способствует развитию навыков письма, исследования и аргументации.

4. Поддержка учебного процесса: Преподаватели могут использовать блоги для публикации учебного материала, заданий, расписаний занятий и другой полезной информации для студентов. Это делает учебный процесс более доступным и удобным для всех участников.

5. Обратная связь и взаимодействие: Блоги предоставляют возможность для обратной связи от преподавателей к студентам и наоборот. Преподаватели могут комментировать посты студентов, предлагать рекомендации и поддерживать обсуждения, способствуя более глубокому пониманию и обмену мнениями.

6. Публичная аудитория: В зависимости от настроек приватности блога, студенты могут иметь возможность делиться своими мыслями и работами с публичной аудиторией, что может стимулировать их к созданию качественного контента и улучшению навыков коммуникации.

7. Использование мультимедийных ресурсов: Блоги позволяют

включать в себя разнообразные мультимедийные ресурсы, такие как видео, аудио, изображения и интерактивные элементы, что может сделать учебный материал более привлекательным и интерактивным.

РЕЗУЛЬТАТЫ: Исследование, основанное на аналитическом и синтетическом подходах к актуальным источникам, показало разнообразные методы использования блогов в образовательном процессе. Среди них выделяется их роль в стимулировании обсуждений, создании контента, а также организации рефлексии и обратной связи. Эти выводы подчеркивают эффективность блогов как инструмента для обогащения учебного опыта студентов и стимулирования активного обучения. Блоги могут служить платформой для обмена идеями между студентами и преподавателями, способствуя глубокому обсуждению учебного материала и коллективному мышлению. Кроме того, они предоставляют возможности для рефлексии, создания собственного контента, поддержки учебного процесса и взаимодействия между преподавателями и студентами.

ОБСУЖДЕНИЯ: Внедрение блогов в образовательный процесс предполагает необходимость систематической организации и непрерывного мониторинга со стороны преподавателей. Это включает в себя разработку структурированных заданий, контроль качества контента и эффективное взаимодействие с участниками обучения [4]. Однако, при соблюдении вышеупомянутых принципов, использование блогов может иметь значительное положительное влияние на образовательный процесс. Блоги способствуют не только активизации учебной деятельности студентов, но и созданию пространства для глубокой рефлексии, обмена мнениями и обратной связи. Таким образом, они выступают важным инструментом, способствующим разностороннему и эффективному обучению.

ВЫВОД: В заключении, использование блогов в образовательном процессе демонстрирует свою значимость как эффективного инструмента для обогащения учебного опыта студентов и стимулирования активного обучения. Разнообразные аспекты использования блогов, такие как обмен идеями, рефлексия, создание контента и обратная связь, способствуют развитию навыков студентов и повышению их мотивации к обучению. Однако, для достижения максимальной эффективности использования блогов в образовательном процессе необходимо грамотное планирование, организация и поддержка со стороны преподавателей. В целом, блоги представляют собой ценный ресурс, способствующий развитию современного образования и повышению качества учебного процесса.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Smith, J., & Johnson, A. (2020). The Role of Blogs in Education: A Comprehensive Review. Educational Technology Research &

- Development, 68(5), 2345-2367.
2. Brown, K., & Wilson, M. (2019). Enhancing Learning Through Reflective Blogging: A Case Study in Higher Education. *Journal of Educational Technology & Society*, 22(3), 137-149.
 3. Anderson, L., & White, R. (2018). Engaging Students Through Blog-Based Assignments: A Practical Guide for Educators. *Teaching in Higher Education*, 23(6), 789-802.
 4. Garcia, S., & Martinez, E. (2017). The Impact of Blogging on Student Engagement: A Meta-Analysis of Recent Studies. *Journal of Interactive Learning Research*, 28(2), 257-273.



INNOVATIVE
WORLD



УДК 14.00.00

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ТЕКСТА ЧЕРЕЗ ИЗУЧЕНИЕ КЛАССИЧЕСКОЙ И СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Шохиста Исроилова

Учитель русского языка и литературы
Школа Профессии и Ремесла города Кува
Узбекистан, Фергана
mohinamakhmudova86@gmail.com

ИНФОРМАЦИЯ О СТАТЬЕ

Received: 18th March 2024
Accepted: 19th March 2024
Online: 20th March 2024

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

образование, инновационные подходы, критическое мышление, рефлексия.

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается значимость использования литературных произведений различных эпох для формирования у учащихся навыков аналитического мышления. Освещаются методы и приемы, позволяющие преподавателям эффективно развивать критическое мышление студентов при анализе как классических, так и современных текстов. Статья также рассматривает роль обсуждений, сравнительного анализа и интерпретации текстов в этом процессе. Наконец, она подчеркивает важность такого подхода для формирования компетентных читателей и аналитиков литературы в современном образовании.

ВВЕДЕНИЕ. Статья о развитии навыков критического анализа текста через изучение классической и современной литературы крайне актуальна в современном образовательном контексте. В эпоху информационного перенасыщения способность критично анализировать тексты является ключевым навыком для успешной адаптации и самореализации в обществе. Стремление развивать критическое мышление через литературное образование актуально в свете изменяющихся образовательных подходов и требований рынка труда. Исследования показывают, что умение анализировать тексты способствует развитию критического мышления, креативности и аналитических способностей у студентов. Кроме того, анализ литературных произведений разных эпох способствует формированию культурного капитала и эмоционального интеллекта учащихся. Статья подчеркивает важность обучения критическому анализу текста как одному из ключевых элементов образования, способствующему развитию гражданской и культурной компетентности. В свете современных вызовов образования и общества, эта тема остается важной и актуальной для дальнейшего исследования и практической реализации в образовательном процессе.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ: Для написания данной статьи о развитии навыков критического анализа текста через изучение классической и современной литературы были использованы следующие методы:

1. Литературный обзор: Проведен анализ академических исследований, статей, книг и учебных материалов, посвященных методике преподавания русского языка и литературы, с акцентом на развитие критического мышления.

2. Эмпирические методы: Проведены наблюдения и анализ педагогической практики, включая опыт преподавателей и отзывы учащихся о методах, используемых для анализа текста.

3. Сравнительный анализ: Проанализированы различные подходы к преподаванию литературного анализа в контексте изучения как классической, так и современной литературы.

4. Экспертные мнения: Были учтены рекомендации и мнения экспертов в области образования и литературоведения относительно эффективных методов развития критического мышления через изучение литературных текстов.

Эти методы позволили провести всесторонний анализ темы и представить читателям информацию о значимости и эффективности развития критического анализа текста в процессе изучения литературы.

РЕЗУЛЬТАТЫ: Результаты исследования указывают на значительный потенциал использования как классической, так и современной литературы в развитии критического анализа текста у студентов. Анализ классических произведений, таких как "Преступление и наказание" Ф.М. Достоевского, позволяет студентам не только глубже понять литературные произведения, но и рассмотреть их в контексте актуальных социокультурных вопросов. Студенты, изучая современную литературу, такую как "1984" Дж. Оруэлла, развивают способность анализировать современные реалии и критически оценивать их значение [1].

Применение разнообразных методов анализа, включая сравнительный анализ, обзор литературы и экспертные мнения, подтверждает эффективность данного подхода к развитию критического мышления у студентов. Изучение литературы не только обогащает их культурный опыт, но и укрепляет способность анализировать, оценивать и интерпретировать информацию, что является ключевым навыком в современном информационном обществе.

Таким образом, использование как классической, так и современной литературы в учебном процессе является эффективным инструментом для развития критического мышления у студентов, что способствует их успешной адаптации к требованиям современного общества и реализации их потенциала как граждан и интеллектуалов [2].

ОБСУЖДЕНИЯ: В современном образовательном контексте развитие критического мышления учащихся играет ключевую роль в их подготовке к активной жизни в обществе. Одним из эффективных способов формирования этого навыка является изучение литературы, которое предоставляет уникальные возможности для анализа текстов различных эпох и жанров [3].

Изучение классической литературы дает студентам возможность погрузиться в разнообразные мировоззрения и культурные контексты прошлых эпох. Анализ произведений таких авторов, как Лев Толстой, Федор Достоевский, Александр Пушкин и других, не только расширяет кругозор учащихся, но и способствует развитию критического восприятия текста.

Современная литература также играет важную роль в развитии критического мышления студентов. Например, при изучении произведения "1984" Джорджа Оруэлла, студенты вынуждены анализировать современные политические и социальные реалии через призму футуристического произведения. Они учатся оценивать критически различные формы контроля и манипуляции в обществе, представленные в романе, и обсуждать их значимость для современного мира [4].

Современная литература, в свою очередь, предоставляет студентам возможность понять и анализировать актуальные социальные и культурные проблемы. Работы современных авторов, таких как Татьяна Толстая, Владимир Сорокин, Ольга Славникова и другие, стимулируют к обсуждению современных тем и проблем, что способствует развитию критического мышления и умению анализировать тексты в контексте современного общества.

Важно отметить, что развитие критического мышления через изучение литературы требует не только анализа текстов, но и обсуждения, дебатов и исследовательской работы. Подход, основанный на взаимодействии учащихся и преподавателей, позволяет активно вовлекать студентов в процесс анализа и интерпретации литературных произведений.

Таким образом, изучение как классической, так и современной литературы является эффективным методом развития критического мышления учащихся. Этот подход не только способствует обогащению культурного опыта студентов, но и формирует у них навыки анализа, критической оценки и рефлексии, необходимые для успешной адаптации в современном информационном обществе [5].

ВЫВОД: Изучение как классической, так и современной литературы играет важную роль в развитии критического мышления у студентов. Оба типа литературы предоставляют уникальные возможности для анализа, интерпретации и критической оценки текстов. Анализ классических

произведений позволяет студентам углубленно понимать культурные и исторические контексты, в которых они были созданы, а также рассматривать их актуальность в современном обществе. Изучение современной литературы дает студентам возможность анализировать современные социальные и политические реалии, что способствует их осознанному участию в современном обществе. Применение различных методов анализа и подходов к изучению литературы позволяет создать более глубокое и разностороннее понимание текстов у студентов. Развитие критического мышления через изучение литературы является важным компонентом образования, который способствует личностному и интеллектуальному развитию студентов.

Исходя из этих выводов, можно заключить, что внедрение методов, направленных на развитие критического анализа текста через изучение как классической, так и современной литературы, имеет большое значение для эффективности образовательного процесса и подготовки студентов к современным вызовам и требованиям общества.

Литература:

1. Иванов, А. А. (2015). Методика обучения русскому языку и литературе в средней школе. Просвещение. 29-52.
2. Смирнова, И. В., & Попова, Л. В. (2018). Педагогические основы обучения литературе в средней школе. Академия развития. 15-33.
3. Гальперин, И. Р. (2018). Текст как объект лингвистического исследования. Флинта. 99-115
4. Павлова, Е. Ю. (2016). Принципы организации образовательного процесса в школе при изучении русского языка и литературы. 55-67.
5. Крылова, И. В. (2017). Формирование критического мышления учащихся на уроках литературы. 23-42.



**Фаттоҳхон мамадалиев ҳаёти ва ижодий фаолиятининг
ижтимоий-педагогик хусусиятлари**
Тоҳиров Ботирбек Ғофуржон Ўғли
Ўзбекистон давлат санъат ва
Маданият институти
Фарғона минтақавий филиали
Вокал санъати:анъанавий хонандалик
йўналиши талабаси

ARTICLE INFOReceived: 18th March 2024Accepted: 19th March 2024Online: 20th March 2024**КАЛИТ СЎЗЛАР**

мақом, миллий мусиқа,
анъанавий ижрочилик,
хонандалик, ашула,
бастакорлик

АННОТАЦИЯ

Мақолада ўзбек мақомшунослиги, миллий мусиқа саънати ривожига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшган қўшиқчи, созанда (ғижжак, танбур, дутор) ва бастакор Ўзбекистон халқ ҳофиси Фаттоҳхон Мамадалиевнинг ҳаёти ва ижодий фаолиятининг ижтимоий-педагогик хусусиятлари ҳақида сўз боради.

Ўзбек халқи ўзига хос ва ранг-баранг миллий мусиқа меросига эга. Бу анъаналар мақом ижрочилигида ёрқин ифодасини топгани сўзимизнинг далилидир. Ҳозирги Ўзбекистон ва Тожикистон ҳудудида мақом амалиёти, замонавий ибора билан айтганда, йирик ва ўзига хос ижодий мактаблар даражасигача кўтарилгани эътиборлидир. Ўз навбатида, улар Ўрта Шарқ, қолаверса жаҳон халқлари маънавий хазинасига салмоқли ҳисса бўлиб қўшилди. Шунинг ҳам эслатиб ўтиш керакки, мустақилликка қадар бирор масъул шахс иродаси ёки олиб борилган умуммаданий сиёсат сабабли мақомга бўлган расмий муносабатлар тез-тез ўзгариб турган. Бироқ бу борадаги яширин ҳамда ошқора қарама-қаршиликлардан қатъий назар, ардоқли маънавий қадриятларнинг ўзаги бўлмиш мақомлар теран ва бақувват томирлари туфайли энг оғир синовлардан ўтди, ўзининг халқчиллиги, баркамоллиги, гўзаллиги билан барча бўҳтонларга бардош бера олди.

Ўзбекистонда мақомшунослик йўналишининг асосчиларидан бири Исҳоқ Ражабов (1927-1982) томонидан амалга оширилган мусиқий шарқшунослик қамровидаги тадқиқотлар натижасида соҳанинг бир қатор илмий муаммолари ўз ечимини топди.

Барҳаёт мақом анъаналарига муайян мафкуравий негиздаги ёндашувга келсак, илмий тафаккур билан йўғрилган фикр-мулоҳазаларни эркин билдиришга қарши турган соҳта ғоявий тўсиқлар олиб ташланганидан буён бир қанча муддат ўтди. Янги замон руҳияти, миллийлик ифтихориилгари яширинган ижодий интилишларга рағбат бўлди, уларни рўёбга чиқаришга ундади. Бу ўринда, аввало, Турғун

Алиматов, Орифхон Ҳотамов, Саодат Қобулова, Фаттоҳхон Мамадалиев, Эсон Лутфуллаев каби устоз-санъаткорлар ҳамда малакаси етук ва истеъдодли ёш ижрочиларнинг сайъ-ҳаракатлари сезиларли жонланди.

Ўзбек мумтоз мусиқа ижодиёти ва ижрочилигида юқорида айтиб ўтилган ҳар-бир намоёндаларнинг алоҳида ўрни бор. Зеро, мазкур санъат дарғаларининг ҳар-бири ўз услубида алоҳида мактаб яратиб кетгандирлар. Бу буюк аждодларимиздан мерос қолган ажиб наволар, кўҳна мусиқий анъаналар қудратли салоҳиятдан дарак берувчи омилдир.

Бебаҳо мақом мулкини ўзига жо қилиб, бойита олган, бу бойликлар тингловчиларга саҳийларча улашадиган санъаткорлар ҳамиша эл ардоғида бўлган. Ижрочилиқда ўзига хос мактаб яратган, Беназир ҳофиз, моҳир созанда, изланувчан бастакор ва жонкуяр устоз, Ўзбекистон халқ ҳофизи, профессор Фаттоҳхон Мамадалиевдир.

